

Әдебиатлар

1. Әбдиев А. Жүрегінде – халық тәғдири. // «Әмиўдәрәя» 2018, №7.
2. Wintermeyer R. Introduction // «Moi public» et «Moi privé» dans les mémoires et les écrits autobiographiques du 17e siècle à nos jours / études réunies et présentées par R. Wintermeyer en collaboration avec C. Bouillot. Mont-Saint-Aignan, 2008. P. 11-31.
3. Lejeune P. L'autobiographie en France. 2 ed. Paris, 2004. Miraux J.-P. L'autobiographie: Ecriture de soi et sincérité. Paris, 2009. 23.
4. Камалов Қ. Ел хызметинде. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 1995, 443-б.
5. Камалов Қ. Илимли елге нур жаўар. -Нөкис: «Илим», 2010, 40-46-б.
6. Коллектив авторлар. Нәжим Дәўқараев. Еске түсирийлер. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 1990, 11-б.
7. Қонаев Д. Өтті дәурен осылай. -Алматы: РГЖИ Дәуир, МП. Ынтымақ, 1992, 33-б.
8. Майский И.М. Воспоминания советского дипломата. -Ташкент: «Ўзбекистан», 1980, -С. 3.
9. Нурмухамедов М. Прыжок. -Ташкент: «Baktria press». 2020. -С. 314. составитель и автор предисловия И.Нурмухамедова (Садган).
9. Уснатдинов Ш. Көргенлерим хэм кеўилдегилерим. -Нөкис: «Қарақалпақстан», 2009, 209-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада муаллиф мемуар асарларда миллат зиёлиларининг тақдири талқинини илмий таҳлил қилади. Мемуардаги давр сиёсати тасвирини ва асарнинг замонавий сиёсий фаоллар учун тарихий асос сифатидаги аҳамиятини илмий тадқиқ қилади.

РЕЗЮМЕ

В статье автор научно анализирует трактовку судьбы интеллигенции нации в своих мемуарах. Мемуары исследуют изображение политики того времени и важность этой работы как исторической основы для современных политических активистов.

SUMMARY

In the article, the author scientifically analyzes the interpretation of the fate of the nation's intelligentsia in his memoirs. The memoir explores the portrayal of politics of the time and the importance of this work as a historical basis for contemporary political activists.

SOBIR O'NAR HIKOYALARIDA XARAKTER YARATISH MAHORATI

M.Sa'dullayeva – assistent o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti

Tayanch so'zlar: adabiy talqin, hikoya, janr, ijodkor dunyoqarashi, ruhiyat tahlili, badiiy mahorat, rivoya texnikasi, xarakter tadriji, tasvir yo'sini, ifoda mustaqilligi, individuallashtirish, badiiy umumlashma, shakl, ma'no, obraz taqvim, estetik ideal, baholash mezon, idrok, nutq.

Ключевые слова: литературная интерпретация, рассказ, жанр, творческое мировоззрение, ментальный анализ, художественное мастерство, повествовательная техника, развитие персонажа, образный стиль, независимость выражения, индивидуализация, художественное обобщение, форма, значение, имиджевый календарь, эстетический идеал, критерии оценки, восприятие, речь.

Key words: literary interpretation, story, genre, creative worldview, mental analysis, artistic skill, narrative technique, character development, image style, independence of expression, individualization, artistic generalization, form, meaning, image calendar, aesthetic ideal, evaluation criteria, perception, speech.

Odatda, shaklan ixcham va ijodiy imkoniyatlari cheklangan janr sifatida hikoya hayotiy tafsilot, suyet soddaligi va xarakter mantig'ini omuxtalashtiradi. Unda inson fe'l-atvori muhim qirrasini ham individuallashtirish, ham umumlashtirish iqtidori, tasvir yo'sini va ifoda mustaqilligi uyg'unligi, talqin va tahlil o'rin almashinuvlari muntazamligi, rivoya texnikasi va yig'iq tasavvur sintezi hal qiluvchi vazifa bajaradi. Aslida "hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon bo'ladi, shu bois voqeaning o'zi ahamiyatli mazmun-mohiyatni namoyon etishi uchun yaroqli bo'lishi lozim" [6:376]. Ham qahramon ruhiyati o'zgaruvi, ham voqelik tadrijini estetik idrokda qayta tiklash ijodkor badiiy mahoratiga payvandlanadi. Joriy holatda hikoyabop materialni tanlash, o'ziga xoslik va tafovutni belgilash hamda badiiy illyuziyani birlashtirish aniqligini taqozolaydi. Aynan "xolis kuzatuvchi" maqomida turadigan hikonanavis obraz holat-harakatiga daxl qilmaydi.

Yangi davr o'zbek hikoyachiligi takomilida Sobir O'nar ijodi mustahkam o'rin egallaydi. Adib adabiy talqinida tasvir ruhiyati o'ziga xosligi, ifoda qabariqligi va nutq amaliy ishlanganlik darajasi yaxlitlashadi. Bir paytning o'zida ham xarakter psixologiyasini, ham inson jamiyatdagi maqomini, ham qahramon ma'naviy-axloqiy pozitsiyasini ochib berish mayli yozuvchi uslubiy izlanishlari tabiatini belgilaydi. "Sobir O'nar asarlaridagi o'ziga xoslik xarakter xususiyatlarini ochishda qahramon nutqining jozibadorligi e'tibordir. "Cho'l o'rtasidagi shiypun" hikoyasi qahramonlaridan birining tili bilan aytganda "til-zabon bitib, chunon iboralar qo'llaydiki, o'quvchi bu chechanlik qaydan ekan, deb qoladi". Adibning bu hikoyasida sodda qishloq odamlarining hayoti qalamga olinadi... qahramonlar ismiga qo'shib aytiladigan laqablar ular tilining xalqonaligini yanada oshiradi. Jamiyatdagi maishiy muammolarga o'ralashib qolgan, hayotning mazmuni pul va mol-dunyodan iborat deb biladigan, birovga qilgan yaxshiligi-yu, savobini misqollab hisoblab yuradigan kimsalar bilan birga atrofimizdagi na insoniylik, na axloq

normalariga to'g'ri keladigan illatlar tasvirlangan "Sarishtali odamlar" hikoyasida ham Murtoz "chestniy" obrazi orqali shunday holatlarni kuzatish mumkin" [5:121]. Muallif bitiklarida rivoya texnikasi mustaqil ijodiy vositaga tenglashadi. Matn tili shiraligi, bir tomondan, samimiyat va tabiiylikni yuzaga chiqarsa, ikkinchi tomondan, xarakter ruhiyatini har xil miqyoslardan yoritishga zamin hozirlaydi. Nosir qalamiga mansub "Orzuga to'la qishloq" (1989), "Ovloq adirlar bag'rida" (1990), "Chashma" (1991) va "Bibisora" (2011) hikoyalar to'plamlarida inson fe'l-atvori nozik qirralarini ochib berishga moyillik kuzatiladi. Hayotiy-maishiy ziddiyatlar iskanjasida qolgan, vaziyat tajovuzida ham o'z vijdonini saqlab qololgan oddiy kishilar qismatini tasvirlashga intilish yozuvchi ijodini bezaydi. Jumladan, "Minnat" hikoyasida muallif qahramon iroda yo'nalishini monolog va dialog yordamida tahlillashga intiladi. Munosabatli nutq asar maromi, samimiyati va ifoda yoyiqligini ta'minlaydi. Hikoya matnida iqrar-tavsif Abduxoliq xarakterini oydinlashtiradi:

Akamni, oradan olti yil o'tibdi vafotiga, endi-endi shunday qo'msaymanki, Xudo haqqi, agar hozir hayot bo'lganida, bo'yniga osilib to'yib, bo'kirib yig'lar edim. Odam shunday ekan-da: tirik va sog'lom yurganida xuddi mangu shunday qoladigandek, sen ham oshingni oshab, yuz yil yashab yuraveradigandek tuyulaverarkan. Talabaligimda, bir kilo konfet ko'tarib uyiga o'tardim, o'g'il-qizlarini erkalab o'tirishni xush ko'rardim [2:46].

Lavhada qahramon o'y-xayoli vositasida qayta tiklanadigan xarakter tadriji badiiy yaxlitlik kasb etadi. Adib obraz ruhiyatini tasvirlashda teranlashmaydi, biroq, shirin xotira ikki personaj qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi. Sharoit taqozosi tufayli shafqatsiz hayot girdobida qolgan inson qismatiga mudomi mashaqqatlar hamroh! Tirikchilik o'tkazishga mahkum odamzod a'moli hamisha ko'ngil olamiga tazyiq o'tkazadi. Mayda-chuyda tafsilotlar shaxs ma'naviyatini izdan chiqaradi. Muallif aksar hikoyalarida rivoya birinchi shaxs tilida bayon etiladi. Joriy holat xarakter ruhiyati, mushohada qamrovi va iroda

yo'nalishini markazlashtirishga zamin hozirlaydi. Yozuvchi badiiy axborotga ham munosabat yuklashga harakat qiladi, qahramon ruhiy holatini nuqsonlardan xoli ifodalashga urinmaydi. Mana shu mezon adabiy talqinda samimiyat ustuvorligini tayin etadi.

Odamsot jamoa bo'lib yashay boshlagandan buyon shaxs va jamiyat o'rtasida ziddiyat mavjud. Zero, jamiyat har bir odamdan belgilab qo'yilgan tartiblarga amal qilish, o'z manfaati, istaklaridan voz kechishni talab qiladiki, buning shaxsga yoqmasligi tayin. O'zbek azal-azaldan ijtimoiy tartiblarga ortiq darajada amal qilib yashaydi. U ko'ngil istaklari, tabiiy mayllarini jilovlab, jamiyatta muvofiq ko'rilgan tarzda hayot kechirishga urinib keladi. Bugungi o'zgarigan davr ana shu qadimiy etnik xislatlarga ham tahrir kiritdi [3:146]. Inson ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi teranlashuvi ma'naviy-axloqiy o'lchamga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shaxs ruhiy ehtiyoji o'rni egallaydigan jamiyat manfaati insonni o'zligidan ayirib, ommalashtiradi. Umumkayfiyat universal talablarni mutlaqlashtiradi. Buning oqibati o'laroq o'zbekona bag'rikenglik, diyonat va mehr-oqibat tuyg'usi yangi qadriyaviy mezonlar kirib kelishiga mustahkam zamin hozirlaydi:

Matlab aslida shu Oqmorolni deb dunyoga kelgan ekan. Saksonga kirib umrining boshi-ketini o'ylasa shunday bo'lib chiqdi. Shuncha yil-a, shuncha uzun umr-u, sarson-sargardonlikka evrilgan qismat, ana, boring, peshona-ya. Oqmorolni deb yashagan yillari asli uni qizdan yuzlab chaqirim nari, xuddi quyundagi xashakday begona manzillarga ulotirib tashlayveribdi. Qaridi, churidi, endi manglayiga tarsillatib shappat urdi. Hali ham Talas tog'larida tayog'ini, chorig'ini sudrab yurar edi. Qo'ra-qo'ni toni tog'-adirlarda bu atroflarning egasi bo'lgan yangi boy – Zamonboyning xizmatini qilardi. Bir to'p otlar qurollangan yigitlar kuppa-kunduz bosishdi [2:42].

"Begona mehmon" hikoyasida muallif rivoyat motividan foydalanadi. Muhabbat mavzusi azaliy va abadiy talqinni yangilaydi. Asar hayotiy tafsilotlar o'zaro

munosabatini tavsiflaydi. Taqdir Matlabni turli-tuman sinovlarga ro'paro' qiladi. Qahramon Oqmorolni sevib qoladi va sovg'i qo'yadi. O'rtada to'siq paydo bo'ladi: besh yuz chaqirim masofa va begonaga qiz bermaslik odati ikki tomon qarshiligini ta'minlaydi. Shunga qaramay, yigitga omad kulib boqadi, qizga unashtirilgan hamqishloq yigit o'g'rilik bilan qo'lga tushib qamaladi. Matlab ichkuyov bo'lishga rozi bo'ladi va to'y bo'lib o'tadi. Shirin hayotga hasad raxna soladi. Maktabda o'qituvchi sifatida faoliyat yuritayotgan qahramon chaquv tufayli "xalq dushmani"ga aylanadi. Davr o'zgarishi bilan yangi boy – Zamonboy podasini boqib, umrguzonlik qilayotgan yigitdan yana omad yuz o'giradi: Zamonboyga qurolli bosqin uyushtiriladi. Muallif tafsilotlar ketma-ketligida xarakter turg'unligi ifodasini kuchaytiradi, oddiy inson omiliga munosabat aslo o'zgarmasligini mantiqan dalolatlaydi.

Umuman, Sobir O'nar hikoyalarida xarakter mantig'ini maishiy hayot, vaziyat va sharoit taqozosi belgilab beradi. Muallif aksar ijod namunalarida qahramon qiyofasini bir-biriga bog'liq tafsilotlar silsilasida ochib berishga intiladi. Jumladan, "Begona mehmon, "Bir o'larmon chavondoz" hikoyalarida muallif epizodlar qatimida xarakter badiiy tadrijini yoritadi, "Tegirmonchining bolasi", "Aka-ukalar" va "Sapura xolaning ertagi" asarlarida ziddiyatlar keskinligidan unumli foydalanadi. Yozuvchi odamsot sezimini g'oyat nozik his qiladi, biroq xarakter iroda yo'nalishini ba'zi o'rinlarda ijtimoiy talablarga bog'lash bilan kifoyalanadi. Eng asosiysi, adib kashf etgan har bir obraz kitobxonda xayrixohlik uyg'otadi, ishonch tuyg'usi qahramonni o'quvchiga yaqinlashtiradi. Shaxs psixologiyasini tahlilashda adib manzara, holat, tafsilot, ritorik munosabat shakllaridan samarali foydalanadi. Vaziyat o'zgaruvi va sharoit taqozosi inson hayotiga ta'sir o'tkazadi. Kuchli ruhiy bosim dunyoqarashda ham islohotlar hosil qiladi. Matnga saralanmay kiritilgan tafsilotlar badiiy vazifadoshligini ta'minlaydigan omil sanaladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. Sobir O'nar. Bibisora. –Toshkent: // «Adabiyot va san'at», 2011.
3. QozoqboyYo'ldosh. Ochqichso'z. -Toshkent: «Tafakkur», 2019.
4. Rahimjonov N. Badiiyat – bosh mezon. - Toshkent: «Akademnashr», 2016.
5. Sattorova G. Hikoyachiligimizning bugungi qiyofasi. // «Sharq yulduzi», 2017, № 7.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: «Akademnashr», 2018.

РЕЗЮМЕ

Maqolada adabiy talqin o'ziga xosligi, hikoya janrida xarakter mantig'ini shakllantirish taomillari va badiiy mahorat masalasi Sobir O'nar ijodi misolida tahlillanadi. Unda hayotiylik darajasi va badiiy to'qima uyg'unligi, tasvir ruhiyati va ifoda mustaqilligi yaxlitligi, xarakter iroda yo'nalish va estetik ideal munosabati xususida mushohada yuritiladi. Obraz illyuzisiyasi hamda qahramon fe'l-atvori namoyon bo'lish tarzi aslida sharoit taqozosi, jo'g'rofiy makon va zamon uzviy aloqasi, harakatdagi voqelik va ruhiy holat muntazamligiga tayanadi. Hikoyanavis tayyor holatda tasvirlanadigan inson xarakter qirralarini ham individuallashtiradi, ham umumlashtiradi, natija o'laroq tavsif, tafsilot va rivoya jipsligini ta'minlash badiiy mahoratiga payvandlanadi.

РЕЗЮМЕ

Наблюдается уровень живости и гармонии художественной фактуры, целостность образа, дух и независимость выражения, направленность воли персонажа и взаимосвязь эстетических идеалов. Иллюзия образа и способ, которым проявляется главный герой, на самом деле основаны на необходимости обстоятельств, органической связи географического пространства и времени, закономерности реальности и настроения в движении. Рассказчик как индивидуализирует, так и обобщает аспекты человеческого характера, изображенного в законченном виде, и в результате приобщается к художественному мастерству обеспечения согласованности описания, деталей и повествования.

SUMMARY

It observes the level of vitality and harmony of artistic texture, the integrity of the image spirit and independence of expression, the direction of character will and aesthetic ideal relationship. The illusion of image and the way in which the protagonist is manifested are in fact based on the necessity of circumstances, the organic connection of geographical space and time, the regularity of reality and mood in motion. The storyteller both individualizes and generalizes the aspects of the human character portrayed in the finished state, and as a result is welded to the artistic skill of ensuring the coherence of description, detail, and narration.